

QARDOSH XALQ KUYCHISI BERDAQ QO'LYOZMALARINING AHAMIYATI

Rasulova Sarvinoz Sanjar qizi
Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti 2-bosqich talabasi



Annotatsiya: Biz mazkur maqola orqali Qoraqalpoq mumtoz adabiyoti asoschisi Berdaq taxallusi bilan ijod yuritgan Bedimurod Qarg'aboy o'g'lining hayot yo'lini hamda ijodini yaqindan bilib olamiz.

Kalit So'zlar :Adib, baxshi, shoir, qoraqalpoq kuychisi, mutafakkir, haqiqat, ozodlik, mardlik, mustaqillik, insonparvarlik.

KIRISH

Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'nnaviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz .

Buyuk shoir Berdaqning ijodi va hayot yo'lini chuqur o'rganmog'imiz biz uchun barcha adabiyotshunoslar ,kitobxonalar uchun ,yoshlarimiz o'rtaida keng targ'ib qilish ishlarini yanada jonlantirish lozim deb bilamiz. Berdaq hayoti va ijodini targ'ib qilishda inovatsiyalardan keng foydalanib Berdaqning she'rlarini zamonaviy tarzda kuylanishi, asarlaridan sahnalashtirilgan qisqa video lavxalarni ko'plab tillarda tayyorlash hamda kino filmlar orqali Berdaqning faoliyatini yoritsak

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

maqsadga muvofiq bo'kadi . Men turli sinovlarda va kurashlarda toblangan, iymon irodasi mustahkam xalqimizning aql- zakovati va azmu shijoatiga ishonaman.

SHAVKAT MIROMONOVICH MIRZIYOYEV.

ASOSIY QISM

Berdimurod Qarg'aboy o'g'li taxallusi Berdaq qardosh xalqimiz ya'ni qoraqalpoq xalq adabiyotining asoschisi . 1827-yil Mo'ynoq tumanida tavallud topgan. Avval ovul mакtabida , so'ngra madrasada ta'lif olgan. So'z mulkinining sultoni Alisher Navoiy ,Fuzuliy, Maxtumquli va qoraqalpoq shoiri Kunxo'ja asarlarini chuqur o'rgangan.U tarixni va xalq og'zaki ijodini yaxshi bilgan .Yozgan barcha asarlai va qo'lyozmalarida tenglik, insonparvarlik, adolat hamda vatanparvarlik g'oyalari ilgari surilgan. Berdaqning she'r va dostonlari xalq ommasining turmushini xolisona va haqqoniy tasvirlab berish bilan ajralib turadi .Ayniqsa Xiva xonligi va Chor Rusiyasi hukmronligi davrida oddiy xalqqa nisbatan o'tkazilgan zulm-zo'rliklar shoirning bir qator she'rlarida ochiq tasvirlab berilgan .Shuning uchun u o'z zamonasidagi adolatsizlikdan , xon fitnalaridan, soliq yig'uvchilardan, miroblarning o'zboshimchaligidan, zolimligidan noliydi, inson , inson qancha mehnatkash bo'lmasin muhtojlikdan chiqolmasligidan zorlanadi.She'riy mushohadalari va hayotga qarashlarida Berdaq mehnatkashlarning baxtiyor yashashini orzu qiladi.

Xalqni baxtli qilish haqida o'ylar ekan, Allohdan madad so'rab quyidagi "Yordam ber" she'ri orqali ,baxt haqida fikr yuritdi. "Izladim" she;ri orqali esa odil podshoni orzu qiladi .Berdaq ijodi xalq og'zaki adabiyoti an'analariga yaqin turadi .Uning ko'pgina asarları o'zbek va boshqa tillarga tarjima qilingan. Ijodi serqirraligi ,asarlarining g'oyavuy va badiiy yuksakligi bilan qoraqalpoq adabiyoti tarixida asosiy mavgeni egallaydi .

O'tgan yillar mobaynida O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda Berdaq tavalludining 170 yilligi keng nishonlandi(1998).Shoir tug'ilgan joy Bo'zatovda ham haykali o'rnatilgan . Nukusda ham haykali qo'yilgan, musiqali drama teatri, ko'cha va maktabga Berdaq nomi berilgan. Berdaq shoirlilik, baxshichilik, sozandalikda tengi yo'q , iste'dodli shaxslardan bo'lgan .Zamonasining taniqli va barchaning hurmatiga sazovor bo'lgan ,elardog'idagi shoirlardan bo'lgan .

XULOSA

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsam Berdaqning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan abbiy ,ijtimoiy- siyosiy va falsafiy g'oyalari hozirgi mustaqillik sharoitida ham o'z tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Mamlakatimiz istiqlolga erishgach Berdaq hayoti va ijodiga munosabat tubdan o'zgardi.Berdaq milliy muzeyi tashkil etildi .

Har bir xalqning o'zligini , milliy mavqeい va qadr –qimmatini dunyoga tanituvchi ulug' farzandlari bo'ladi .Ularning qoldirgan o'lmas meroslari ayni xalqning nafaqat o'tmishini , balki buguni va kelajagini ham belgilaydi . Biz bu

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

ulug' Berdaq shoirni nafaqat qoraqalpoq , balki butun o'zbek xalqimizning ana shunday ardoqli farzandi sifatida ko'ramiz. Ilm- fan taraqqiy etmagan davlatda erkin va farovon jamiyat qurib bo'lmaydi. Berdaqning hayot yo'li va ijodi haqida qancha ko'p so'zlasakda shuncha oz. Shuning uchun Berdaq hayoti va ijodi haqida nafaqat yoshlarimizga balki jamiyatning har bir qatlamiga tanishtirib o'tishimiz lozim.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zME.birinchi jild. Toshkent,2000-yil
2. B.Quronboyev Berdaq va o'zbek adabiyoti ,T.,1986
3. www.president.uz
4. Berdaq milliy madaniyatimizning buyuk namoyondasi nomli metodik qo'llanma. Nukus 2017-yil.
5. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. 30.08.2020-yil
6. Tanlangan she'rler 1958-yil T;1976